

ARTILLERIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Eshonqulov Odil Allamurotovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
artilleriya sikli katta yo‘riqchisi, I-darajali serjant.

Rustamov Otabek Norqo‘ziyevich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
artilleriya sikli katta yo‘riqchisi, III-darajali serjant.

ANNOTATSIYA

Maqolada samolyot tipidagi uchuvchisiz uchish apparatlaridan (UUA) foydalanishning dolzarbligi asoslab berilgan va zamonaviy harbiy harakatlar sharoitida artilleriya tuzilmalarida hamda uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida artilleriya otishiga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va amalga oshirishning usullari, shuningdek uning samaradorligini oshirish yo‘llari ochib berilgan. Bundan tashqari, uchuvchisiz uchish majmualarini artilleriya tizimlari bilan birlashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: uchuvchisiz uchish apparati, artilleriya, UUA, aerorazvedka, havo razvedka komplekslari, korrektirovka, razvedka.

1906 yilda aeronavtika otryadlari tashkil etilganidan so‘ng havo razvedka vositalari bilan artilleriya otishmalarini korrektirovka qilish rivojlana boshlandi. Xuddi shu yili Mixaylovskiy artilleriya maktabining bitiruvchisi Pyotr Nesterov Vladivostokda aerostatdan artilleriya otishiga tuzatmalar kiritish qoidalarini ishlab chiqdi. 4 yildan so‘ng u Gatchinaga ko‘chib o‘tdi va u erda aeronavtika maktabida uchish bo‘yicha o‘quv dasturini o‘zlashtirdi. U havo razvedkasi yordamida artilleriya olovlariga tuzatmalar kiritish kashfiyotchisi va tashkilotchilaridan biri hisoblanadi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida, Leningrad frontidagi jangda, diviziya artilleriyasining qo‘mondoni, havodan suratga olish, artilleriya olovini korrektirovka qikish va otish natijalarini nazorat qilish uchun ikkita havo razvedka bo‘linmalaridan bevosita foydalangan. Kuzatuv sharlari, korrektirovkalovchi aviatsiya bilan bir qatorda, kontrbatareya kurashida ajralmas razvedka vositasi bo‘lgan. 80-yillarga kelib motoo‘qchi (tank) diviziyasi shtatida vertolyot eskadrilyasi paydo bo‘ldi. Eskadrilyada mavjud oltita vertolyotdan ikkitasi artilleriya otishmalariga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan va diviziya artilleriyasi boshlig‘iga bo‘ysundirilgan edi. Fotogrammetrik xizmat tezkor ravishda artilleriya bo‘linmalarini aerofotosurat natijalari bilan ta‘minlagan. Yillar o‘tib Qurolli Kuchlarni isloh qilish va optimallashtirish jarayonida

artilleriya manfaati uchun havo razvedkasi esdan chiqarildi. So‘nggi o‘n yilliklardagi urushlar va qurolli to‘qnashuvlar tajribasi qurolli kuchlarning o‘q otish, (zarba berish) artilleriya otishiga xizmat ko‘rsatish manfaati uchun havo razvedkasini qayta tiklashga ob‘ektiv ehtiyoj borligini namoyon qildi.

Havo razvedka vositalariga maxsus yoki oddiy vertolyotlar, shuningdek masofadan boshqariladigan samolyotlar kiradi. Razvedka-korrektirovkalovchi vertolyotlar erdagi kuzatuv punktlaridan ko‘rinmaydigan joylarni, qulay meteorologik va yaxshi kuzatuv sharoitida dushman ob‘ektlarini razvedka qilish, nishon koordinatalarini aniqlash va artilleriya otishiga xizmat ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

80-yillarning oxirida razvedka-korrektirovkalovchi vertolyotlar yordamida o‘tkazilgan eksperimental otishmalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, raketa qo‘shinlari va artilleriya tuzilmalari tomonidan taqdim etilgan razvedka ma‘lumotlarining aniqligi razvedka-korrektirovkalovchi vertolyotlardan olingan ma‘lumotlariga mos kelmasligi ko‘rindi. Ushbu turdagi razvedka-korrektirovkalovchi vertolyotlarini modernizatsiyasini amalga oshirish vertolyot yon tomoniga ko‘rish radarlari hamda bortli elektron kompleksni o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Biroq, ma‘lum sabablarga ko‘ra, ushbu modernizatsiya amalga oshirilmadi va qo‘shinlardan ushbu turdagi vertolyotlar olib tashlandi.

Hozirgi vaqtda havo razvedkasining eng istiqbolli vositasi - bu dushman qo‘shinlari joylashgan joyning katta chuqurligida nishon to‘g‘risida tezkor va yuqori aniqlik bilan razvedka ma‘lumotlarini olish imkonini beradigan **uchuvchisiz uchish apparatlari** hisoblanadi. Uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) so‘nggi yillardagi qurolli to‘qnashuvlar paytida kuchli rivojlanish sur‘atlariga ega bo‘lgan qurol turlaridan biriga aylandi. UUA ni ishlab chiqarish va jangovar ishlatishda eng katta natijalarga NATO (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya), Isroil va Rossiya kabi ilg‘or davlatlar erishdi. Hozirgi vaqtda xorijiy davlatlarning qurolli kuchlari tomonidan UUA komplekslarga yuklatilgan eng muhim vazifalardan biri bu nishonni belgilash va otish vazifalarini bajarishda artilleriya bo‘linmalariga xizmat ko‘rsatishdir.

Bugungi kunga kelib, uchuvchisiz havo razvedka tizimlari (sinf va jangovar foydalanishiga qarab) artilleriya razvedkasini olib borish va artilleriya olovini korrektirovka qilish bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal qilishga qodir.

Artilleriya otishmalariga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari havo razvedka kompleksi turiga, kerakli dasturiy ta‘minot bilan jihozlanganligiga va UUA xususiyatlariga bog‘liq. Masofadan boshqariladigan uchuvchisiz uchish apparatlari havo razvedka komplekslarining bir qismi sifatida ishlatiladi.

Havo razvedka kompleksi artilleriya manfaati uchun quyidagi vazifalarni hal qilishda ishlatilishi mumkin:

razvedka va nishon koordinatalarini aniqlash;
otib ko'rish va yakson qilishga otish paytida portlashlarning nishondan og'ishlarni aniqlash;

yuqoi aniqlikdagi o'q-dorilarni nishonga yo'naltirish;

yakson qilish uchun otish natijalarini aniqlash.

Divizion komandiri odatda berilgan havo razvedka bo'linmalari bilan hamkorlikni divizion qo'mondonlik punktida tashkil qiladi.

Divizion komandiri hamkorlikni tashkillashtirishda quyidagilarni bajarishi lozim:

aerorazvedka bo'linmasi komandiri bilan aloqani tashkillashtirish;

aerorazvedka bo'linmasi komandiriga divizion batareyalari joylashgan koordinatalarini yetkazish;

otish usullari va tartibini aniqlash (yakson qilishga otish paytida olovni korrektyrovka qilish), aerorazvedka bo'linmasi komandiriga buning uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berish;

UUA parvoz maydonini tayinlash (muvofiglashtirish) (qaerdan nishonlar razvedka qilinadi va artilleriya otish xizmati ko'rsatiladi);

boshqaruv signallarini o'rnatish;

aerorazvedka bo'linmasi artilleriya otishiga xizmat ko'rsatish uchun tayyorlik vaqtini aniqlash.

Divizion komandiri (batareya) nishonlar to'g'risidagi razvedka ma'lumotlarni aerorazvedka bo'linmasi komandiridan yoki divizion olovini boshqarish punktidan oladi.

Shunday qilib, boshqaruvning barcha darajalarida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, birinchi navbatda havo razvedka komplekslari, aloqa bilan ta'minlash, hisoblash vositalari, maxsus matematik va dasturiy ta'minotlarni birlashtirgan holda avtomatlashtirilgan artilleriya tizimlarini tashkil etadigan avtomatlashtirilgan razvedka va olov tizimini yaratish orqali mahalliy artilleriyaning rivojlangan davlatlarning dala artilleriyasidan ustun bo'lishiga erishish mumkin.

Maqolani yozishni yakunlab, biz ba'zi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

yerdagi nishonlarni samarali aniqlash va yakson qilishni ta'minlash maqsadida foydalaniladigan vertolyot va uchuvchisiz uchish apparati (UUA) o'rtasidagi farq shundaki, bulut chizig'i ostidagi balandlikdan otishmalarga xizmat ko'rsatish mobaynida qimmatbaho boshqariladigan vertolyotni yo'qotish xavfidan tashqari, vertolet ekipajining o'limi xavfi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, vertolyot ekipajining haqiqiy qo'rquvidan kelib chiqadigan jangovar stress ostida ishlashi juda ham havfli hisoblanadi, ushbu ish nishon va yo'q qilish vositalaridan o'nlab kilometr uzoqlikda joylashgan, artilleriya otishiga xizmat ko'rsatadigan masofadan boshqarish punkti UUA operatorining ishiga nisbatan samarasiz deb hisoblanishi kerak; shuni

alohida ta'kidlash kerakki, havo razvedka komplekslaridan foydalanib razvedka olib borishda kuzatilmaydigan nishonlar avtomatik tarzda kuzatiladigan nishonlarga aylanadi, bu esa ob'ektiv ravishda ushbu nishonlarni yakson qilish uchun otish tartibining o'zgarishiga va hattoki nishonni yakson qilish uchun zarur bo'lgan o'q-dorilar sarfining kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <http://opk.com.ua>
2. <https://www.kalashnikov.ru/problemy-zapadnoj-artillerii-na-ukraine/>